

**TIKUV BUYUMLARINI ISHLAB CHIQARISHDA KIYIMGA
BERILADIGAN QOSHIMCHALARNI ANIQLASH**

*Rayimberdiyeva Dilrabo Habibillayevna,
Alijanov Ahadjon Akramjon o`g`li
Abdujalilova Mavluda Qo'shaqboy qizi
Namangan to 'qimachilik sanoat instituti*

Kiyim - inson tanasidagi qobiqlar yig'indisi bo'lib, uni atrof-muxitning salbiy ta'sirlaridan saqlab turgan: sovuqdan va jazirama issiqliqdan, qor, yomg'ir va shamollardan, xashoratlarning chaqishidan, yovvoyi xayvonlarning tirnoqlari va tishlaridan, nayza va qilichlarning zarbidan, o`q va zaharli moddalardan himoya qiladi. Kiyim tushunchasi bevosita badanga kiyiladigan kiyimlarni, poyafzalni, bosh kiyimlarni, qo'shimchalar (qo'lqoplar, sharflar, kamarlar, sumkalar va xokazo)ni o'z ichiga oladi. Kiyimning asosiy vazifasi ximoyaviy (jismoni va ruxiy) va o'tilitaramaliy vazifalardir, chunki kiyim insonning biron bir faoliyati bilan bog'liq bo'lib, uni tevarak-atrofdagi olamga moslashishi uchun muxim axamiyatga ega. Kiyim tarkibidagi istalgan buyum bir yoki bir necha vazifani bajaruvchi sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga kiyim estetik vazifani xam bajaradi: insonni bezaydi, kiyimda go'zallik va foydalilik tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liqidir. Xar qanday boshqa buyum kabi kiyim xam iste'mol buyumidir. Kiyim kiyish - bu ana shu mahsulotni iste'mol qilish demakdir. Kiyim muayyan odam uchun yakka tartibda buyurtma asosida tikilgan bo'lishi yoki yuz minglab nusxada sanoat ishlab chiqarishida tayyorlangan mahsulot bo'lishi xam mumkin. Xar qaysi holda xam u insonning ma'lum bir extiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari kiyimlarning gigienik jihatdan tashqi muhitning ifloslanishidan, meteorologik omillardan va teri shikastlanishidan (ijtimoiy ahamiyatga ega, odam tanasini ma`naviy tomondan tanani yashirish) himoya qilishdir. Kiyim-kechak nafaqat his-tuyg'ular aks ettirib, tanani go`zal qilib ko'rsatibgina qolmay, inson sog`ligiga ijobiy ta`sir ko'rsatadi. Liboslar organizm uchun qulay mikroiqlimni yaratishi kerak. Kishi ob-havo sharoitlariga mos kiyinishi kerak, u tanani ortiqcha qizib ketishiga yo`l qo`ymaslik yoki ortiqcha ishlov berilgan liboslar ham ham inson tanasini turli kasalliklarga chalinishiga sabab bo`ladi. Buning uchun mato gigiyena talablariga javob berishi lozim.

Kiyimlarning gigienik xususiyatlarini asosan uchta ko'rsatkich orqali ifodalanadi:

- issiqlik o'tkazuvchanligi
- havo o'tkazuvchanligi
- gigroskopikligi

Yetarli gigroskopiklik ichki qatlamlar uchun ishlatiladigan kiyim materiallarining ijobiy xususiyati bo'lib, ayni paytda juda qiyin qishki tukli ustki qatlami uchun foydali

bo'lishi kerak. Zig'ir matolarining gigroskopik darajasi 65% kam havoning nisbiy namligida kamida 7% bo'lishi kerak. Mato termik xususiyatlari o'z navbatida matoning g'ovakligiga bog'liq, u issiqlik o'tkazuvchanlik bilan belgilanadi, uning qalnligi, tashqaridagi tolalari to'quv tabiatи va havo bo'shliqlari, zaif, kamroq issiqlik o'tkazuvchanligi va issiqlik yo'qolishi diametrik kichik. Matolarning issiqlik o'tkazuvchanligi (kiyim) issiqlik qarshiligini tavsiflaydi.

Havo o'tkazuvchanligi - matoning havo va namlikdan o'tishi qobiliyati, teriga ulashgan gigiena matolari gigroskopik bo'lishi (terlashi) va yaxshi nafas olishi kerak. Mato o`zidan havo va namlikni o'tkazish qobiliyatiga ega bo`lishi lozim. Ichki kiyimlik mato-tanaga tegib turishi sababli gigroskopikligi yuqori bo`lishi (namlikni yutishi) va havo o'tkazuvchanligi yuqori bo`lishi lozim.

Ishki kiyimlik matolar ijobiy natijalarga ega: kam kiyiladi va tabiiy matolarga nisbatan havo aylanishi yuqori bo`ladi, ultrabinafsha nurlarini yaxshi o'tkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kamilova X.X., Xamrayeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» Darslik – Т.: «Cho`lpon», 2011 y
2. Afanasyeva "Sovuqdan himoya qilish uchun kiyimlarni loyihalashtirishning gigienik tamoyillari" (Moskva: Yengil sanoat, 1977).
3. Ҳасанбаева Г.К., Чурсина В.А. “Костюм тарихи” -Т.: Ўзбекистон, 2002.
4. Hasanbaeva G. To'qimachilik dizayni tarixi- Т.: Iqtisodiyot- Moliya, 2006